

BUYUK AJDODLARIMIZNING MUTAFAKKIR VA MA'RIFATPARVAR BO'LIB VOYAGA YETISHLARIDA ONALARNING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8358337>

Mirzaxanova Dilfuza Nig'matulla qizi

O'zXIA stajyor doktoranti

Annotatsiya

Oilada onaning o'rni, uning farzandlar tarbiyasiga ko'rsatgan ta'siri haqida xalqimiz ko'p va xo'p fikrlar aytganki, bu bejizemas. Chunki oiladagi iqlim, farzandlarning xulqi, odobi, otaga munosobati, atrofdagi kishilarga va jamiyatga munosobati aynan anashu onaga bog'liq. Bola hayotga, kishilarga, voqealarga, avvalo, onaning ko'zi bilan qaraydi. Shuning uchun ham xalq orasida "Ota bilimli bo'lsa, farzandlar bilimli bo'ladi. Ona bilimli bo'lsa, millat bilimli bo'ladi", degan naql mavjud. Ona - dunyoda eng tabarruk zot. Hayot onadan boshlanadi, chunki u farzandlar ijodkori, insoniyat me'mori hisoblanadi. Ona - inson tafakkurining gulshani, inson kamolotining sababchisidir.

Kalit so'zlar

ma'rifatli ona, Sitorabonu, Qutlug'nigorxonim, "Namunali musulima" kitobi, Hojar onamiz, Omina onamiz, Sofiya binti Abdulmuttalib, Asmo binti Umayy, "Tabaqot ul-kubro" asari, "Oqila ayollar" harakati.

Аннотация

Наш народ высказал много добрых мыслей о роли матери в семье и ее влиянии на воспитание детей. Потому что от матери зависит климат в семье, поведение детей, манеры, отношение к отцу, отношение к окружающим людям и обществу. Ребенок смотрит на жизнь, людей, события прежде всего глазами матери. Поэтому в народе бытует поговорка: «Если отец образован, то и дети будут образованы. Есть поговорка: «Если мать образована, то и нация будет образована». Мать – самая благословенная порода на свете. Жизнь начинается с матери, ведь она творец детей, архитектор человечества. Мать – цветок человеческого мышления, причина человеческого совершенства.

Ключевые слова

просвещенная мать, Ситорабону, Кутлугнигорханум, книга «Образцовая Муслима», наша мать Хаджар, наша мать Амина, София бинт Абдулмутталиб, Асма бинт Умайи, произведение «Табакат уль-Кубра», движение «Умные женщины».

Abstract

Our people expressed many kind thoughts about the role of the mother in the family and her influence on raising children. Because the climate in the family, the behavior of

children, manners, attitude towards the father, attitude towards other people and society depend on the mother. The child looks at life, people, events primarily through the eyes of the mother. Therefore, there is a popular saying: "If the father is educated, then the children will be educated. There is a saying: "If the mother is educated, then the nation will be educated." Mother is the most blessed breed in the world. Life begins with the mother, because she is the creator of children, the architect of humanity. Mother is the flower of human thinking, the cause of human perfection.

Keywords

enlightened mother, Sitorabonu, Kutluginorhanim, the book "Exemplary Muslima", our mother Hajar, our mother Amina, Sophia bint Abdulmuttalib, Asma bint Umays, the work "Tabakat ul-Kubra", the movement "Smart Women".

Oilada onaning o'rne, uning farzandlar tarbiyasiga ko'rsatgan ta'siri haqida xalqimiz ko'p va xo'p fikrlar aytganki, bu bejizemas. Chunki oiladagi iqlim, farzandlarning xulqi, odobi, otaga munosobati, atrofdagi kishilarga va jamiyatga munosobati aynan anashu onaga bog'liq. Bola hayotga, kishilarga, voqealarga, avvalo, onaning ko'zi bilan qaraydi. Shuning uchun ham xalq orasida "Ota bilimli bo'lsa, farzandlar bilimli bo'ladi. Ona bilimli bo'lsa, millat bilimli bo'ladi", degan naql mavjud.

Atoqli pedagog A.Avloniy aytganlaridek, "...Birinchi - uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir". Haqiqatan ham, millat tarbiyasiga birinchi navbatda onalar mas'uldirlar. Chunki ayollarda faqat oilani emas, ba'zi erkaklar ham eplay olmaydigan, mamlakatni idora qila oladigan quvvat ham borki, buni juda ko'p allomalarimiz tan olib, ayolning nafaqat oiladagi, hatto jamiyatda o'z o'rne borligini alohida ta'kidlashgan va "Oqila ayol - oilaning asosi, bolalarni o'z zamonasi uchungina emas, kelajak uchun tarbiyalay oladi", - deganlar³⁴.

Darhaqiqat, jamiyatning yuksalishida ayolning tutgan o'rne naqadar kuchli ekanligiga hayotning o'zi, tarixning o'zi guvohlik beradi. Ona - dunyoda eng tabarruk zot. Hayot onadan boshlanadi, chunki u farzandlar ijodkori, insoniyat me'mori hisoblanadi. Ona - inson tafakkurining gulshani, inson kamolotining sababchisidir. Ona uchun eng kata baxt - bu farzandlarni risoladagiday tarbiyalash, voyaga yetkazishdir. Onaning farzandga munosabati har qanday vaziyatda o'zgarmaydi. Kishining eng yaqin do'sti, sirdoshi, beg'araz maslahatgo'yi ham ona. Eng og'ir damlarda senga ham dard va hamdam bo'lgan ham ona. Farzandda eng ko'p haqqi bor odam ham ona. Ona roziligini olgan farzand uchun Jannat eshiklari

³⁴ Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent; O'qituvchi, 1992.,- 162-b.

ham ochiladi. Shuning uchun ham “Jannat onalar oyog‘i ostida”, - deyiladi muborak Hadisi Sharifda.

Ulug‘ kishilarimizning tarjimai hollariga nazar tashlasak, ularning ulug‘lik darajasiga ko‘tarilishlarining sababchisi ham onalari ekanligining guvohi bo‘lamiz. Ibn Sino onasi Sitorabonudan, Bobur onasi qutlug‘ Nigorxonimdan dastlabki insoniylik sabog‘ini olishgan.

Tarixga e‘tibor beradigan bo‘lsak, har bir buyuk shaxs ortida ayol siymosi turganini ko‘ramiz. Chunki butun bir millatni ayol dunyoga keltiradi, ayol tarbiyalaydi. Matonatli bu ayollar orasida uzoq umr ko‘rib, qiyinchiliklar oldida qaddini bukmay mardona kurashganlar va alaloqibat yorug‘ kunlarga yetib kelganlarni tushinamiz. Avlodlar davomiyligini ta‘minlash, farzandlar tarbiyasi, ro‘zg‘or ishlari ayollar zimmasida. Qadim momolarimizning zukkoligi, bilimdonligi sabab Beruniy, Ibn Sino, Imom al-Buxoriydek buyuk zotlar voyaga yetgan. Aslida, oilani ham, jamiyatni ham birlashtirib katta kuchga aylantira oladigan zot bu ayollardir.

«Namunali musulima» kitobining muallifi Muhammad Aliy al-Hoshimiy shunday yozadi: «Muslimalar hech qachon farzand tarbiyasi va uning xulq-atvori shakllanishida onaning majburiyatlari otanikiga qaraganda ko‘pligini unutmashliklari kerak...». Hoshimiy aytishicha, «Farzandlar odatda onaga yaqin bo‘ladi va aynan onasi bilan ko‘proq vaqt kechiradi». Islom tarixida o‘z bolalarini yolg‘iz tarbiyalab, ularni taniqli shaxs qilib yetishtirgan ayollar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ular o‘z farzandlariga eng yaxshi sifatlar va islomiy tarbiyani singdirib, insoniyat tarixida onalarga xos yolg‘izlik hamda jasurlikning namunaviy ko‘rinishini o‘rnak qilib qoldirdilar.

«Tarixda ulug‘ kishilarning voyaga yetishida donishmand otalarga qaraganda oqila onalarning hissasi ko‘proq. Shu sababdan bo‘lsa kerak, Islom ummati orasida o‘z onasidan minnatdor va uning oldida qarzdor bo‘lmagan birorta fozil kishini topolmaysiz. Bundan kelib chiqadiki, tarixiy jarayonlarning rivojlanishida aynan onalar o‘z farzandlari orqali bilvosita hissa qo‘shib turishgan», deb yozadi Hoshimiy.

Ismoil alayhissalom Hojar onamiz tarafidan tarbiyalanganlari hammaga ma‘lum. Bu onamiz hozirgi kungacha barcha avlodlar tarafidan eng buyuk ayollardan biri deb e‘zozlanib kelinmoqda. Ibrohim alayhissalom Hojar onamizni va o‘g‘illari Ismoilni Baytning o‘rniga, Zamzam ustidagi katta daraxt ostiga qo‘yib ketganlar. O‘sha paytda Makkada biror kishi ham, suv ham bo‘lmagan. U zot ikkovlarining oldiga bir xurmoli xalta va suvli mesh qo‘yib ortga qaytganlar. Hojar onamiz u zotga ergashib: «Ey Ibrohim! Bizni kimsasiz, biror narsa ham unmaydigan vodiya

tashlab, qayoqqa ketmoqdasiz?!» deb bir necha marta takrorladi, ammo u zot o'girilib qaramadilar. Shunda u zotga: «Alloh taolo sizni shunga amr qildimi?» dedi. Ibrohim alayhissalom: «Ha», dedilar. «Undoq bo'lsa, U bizni zoye qilmaydi», dedi-da, Hojar onamiz ortga qaytdi. Ibrohim alayhissalom esa yo'lda davom etdilar.

Qachonki, u zot tepalikdan o'tib, ular u kishini ko'rmaydigan bo'lganda Baytga yuzlanib, duo qildilar: «Ey Robbimiz, haqiqatda men o'z zurriyotimni Sening Baytul Haroming yoniga, giyohsiz vodiya joylashtirdim». Hojar onamiz Ismoilni emizib, haligi suvdan ichib turdi. Meshdagi suv tamom bo'lganda o'zi ham, o'g'li ham chanqadi. Go'dakka qarasa, u to'lg'anib, tipirchilar edi. Unga nazarim tushmasin, deb ona yurib ketdi.

So'ngra ko'zga yaqin Safo tog'iga ko'tarildi. «Biror kishi bormikan?» deb u yoq-bu yoqqa qaradi. Hech kim ko'rinmaganidan keyin qarama-qarshi tomondagi Marva tog'i sari yurib ketdi. Shu zaylda ikki tog'ning o'rtasida yetti marotaba borib keldi. Biror kishi ko'rinmas edi. Farzandi Ismoilga rahmi kelganidan Alloh taologa nola qilib, duoga qo'l ochdi. Va, nihoyat, duolari ijobat bo'lib, chaqaloq Ismoilning oyog'i ostidan suv chiqa boshladi. Hojar onamiz esa tezlik bilan suv oqib ketmasin, deb atrofni to'sa boshladi. So'ng hovuchlab meshga suv quydi.

Mana shunday qilib, Hojar onamizning yolg'iz o'zi Ismoilni boqib, tarbiyalab, parvarish qilib voyaga yetkazdi. Kelajakda esa Ismoil Alloh taoloning tanlab olgan payg'ambarlaridan biri bo'ldi.

Demak, insoniyat ichidagi eng buyuk zotlar bo'lmish payg'ambarlarni ham yolg'izgina onalarning o'zi o'stirib-undirgani, barcha yomonlik va noxushliklardan himoya qilgani, shuningdek, ular uchun kerak bo'ladigan har taraflama tarbiyani mukammal berganining guvohi bo'lamiz. Bu holat esa bir-ikki emas, balki bir necha payg'ambarlarning hayotida o'z aksini topgan. Ana shunday hayotiy misollardan biri oxirgi zamon payg'ambari Muhammad Mustafa sollallohu alayhi vasallamning o'z onalari Ominaning qo'lida tarbiya topganliklaridir.

Omina onamiz ham yolg'iz bo'lishiga qaramay, qolaversa, har taraflama o'ta og'ir sharoitda va mashaqqatli damlarda ayol boshi bilan kelajakda oxirgi zamon payg'ambarini, ikki olam sarvari, barcha insonlarning sayyidi, butun olamlar rahmati, qiyomatgacha boqiy qoluvchi shariat ahkomlarini qabul qilib oluvchi, mo'jizalarning eng oliysi bo'lmish Qur'on karimning sohibi, Alloh taoloning tanlab olgan bandasi, habibi, xalili bo'lmish Muhammad Mustafa sollallohu alayhi vasallamni tarbiyalab yetishtirdi. Bir ona o'z farzandiga nisbatan ado etishi lozim bo'lgan barcha mas'uliyatlarni mukammal holda ado etdi.

Muhammad Mustafu sollallohu alayhi vasallamning ammalari bo'lmish Sofiya binti Abdulmuttalib ham yolg'iz o'zi bo'lishiga qaramay, o'g'li Zubayr ibn Avvom roziyallohu anhuga yaxshi sifat va oliyjanob xulq-atvorni singdirib tarbiyaladi. Shu o'rinda Sofiyaning o'z o'g'li bo'lmish Zubayrni haqiqiy mard, qo'rqmas, jismonan o'ta baquvvat, qaytmas, qat'iyatli va sarkardalarga xos bo'lgan xususiyatlar bilan tarbiyalaganligi alohida e'tiborga molikdir.

Zubayr ibn Avvom roziyallohu anhu Quraysh qabilasining Asad urug'idan bo'ladilar. U kishining kunyalari Abu Abdulloh bo'lgan. Zubayr ibn Avvom yoshlikdan ot minish, chavandozlik va pahlavonlikka moyil bo'lib o'sdilar. U kishi kichik yoshdaligidayoq kishilar orasida o'zlarining mazkur sifatleri bilan shuhrat topgan edilar.

Ibn Sa'd rahmatullohi alayh o'zlarining «Tabaqotul Kubro» kitoblarida zikr qilishlaricha, Zubayr ibn Avvomning onalari Sofiya binti Abdulmuttalib kichikligida otasidan yetim qolgan o'z o'g'li Zubayrni qattiq kaltaklar edi. Odamlar: «Axir uni o'ldirib qo'yasan-ku, jigarini ezib yubording-ku, bolani halok qilding-ku», desalar, «Men buni pishsin, katta bo'lganda katta lashkarni ortidan ergashtirsin, deb uraman», der edi.

Ali ibn Abu Tolib oqillik, saxovat va yaxshi tabiatni onalari Fotima binti Asaddan me'ros qilib olganlar.

Arab yo'l boshchilari orasida eng oliyhimmatlisi bo'lgan Abdulloh ibn Ja'far ham yoshliklarida o'z otalaridan ayrilib qolgan edilar. Volidalari Asmo binti Umays u kishini oliyjanob va oliyhimmat qilib tarbiyaladi, natijada bu onaning o'zi ham Islom tarixidagi eng ulug' ayollar safidan o'rin oldi. Abdulloh ibn Ja'far roziyallohu anhu o'ta karamli, saxiy, xushxulq, iffatli va go'zal inson edilar. Odamlar u kishini «saxiylik dengizi» deb atashardi. Ba'zi ulamolarning aytishlaricha, Islomda u kishidan ko'ra saxiyroq zot bo'lmagan ekan.

Muoviya ibn Abu Sufyon o'zlarining kuchli tabiatlari va donishmandliklarini onalari Hind binti Utbadan me'ros qilib oldilar. Hazrat Muoviya Shom viloyatining voliyi bo'lganlar. Islom tarixida birinchi bo'lib dengiz kuchlariga asos solganlar va dengiz orqali bir necha shaharlarni fath qilganlar.

Tarixda ulkan iz qoldirgan taniqli allomalar Imom Shofe'iy, Imom Ahmad va Imom Buxoriylarning ham volidalari o'z farzandlarini yolg'iz voyaga yetkazganlari ma'lum.

Imom Buxoriyning ko'zlari yoshlik paytlarida ojiz bo'lib, ko'rmay qoladi. Onalari Ibrohim payg'ambarni tush ko'radilar. U kishi: «Ey ayol, Alloh taolo ko'p duoning sababli o'g'lingga ko'zini qaytarib beradi», deydi. Bir necha kundan so'ng Imom Buxoriyning ko'zlari yana ko'ra boshlaydi. Imom 18 yoshga

to'lganlarida onalari va akalari bilan haj qilish uchun Makkai Mukarramaga keladilar. Haj amallarini bajarib bo'lgach, onalari va akalarini Buxoroga jo'natib, o'zlari hadis jamlash uchun shu yerda qoladilar. Imom Buxoriydan «Nega bu ishga qo'l urdingiz?» deb so'rashganida shunday javob bergan ekanlar: «Bir kuni Rasulullohni tush ko'rdim, qo'limda yelpig'ich, u kishini yelpir edim. Bu tushimni ba'zi ta'bir aytuvchilarga aytsam, «Sen Rasulullohdan yolg'onlarni yelpib turasan», deyishdi».

Demak, Imom Buxoriyning muhaddislar imomi, ustozlarning ustози, hadis illatlarining tabibi degan buyuk maqom-martabalarga erishishlarida volidalarining xizmatlari beqiyosdir. U zotning volidalari nafaqat ta'lim-tarbiya bergan, balki o'z o'g'li bo'lmish Buxoriyning haqlariga tinmasdan duolar ham qilar edi. Ana shunday duolarining samarasi o'laroq, yuqorida kelgan rivoyatda o'z aksini topgandek, Buxoriyning ojiz ko'zlari ham ochildi.

Zikr qilingan ayollarning barchasiga xos sifat shuki, ular o'z farzandlari uchun eng yaxshi ona bo'lish maqsadida Allohga umid bilan tavakkal etib, ko'p mehnat qilganlar. Aslida farzandini yolg'iz tarbiyalab, ularning haqiqiy erkak va kuchli shaxs bo'lib yetishishlarida ulkan xizmat ko'rsatgan, farzandi yutuqlarining asl sababidan biri bo'lgan musulima ayollar Islom tarixida juda ko'p uchraydi.

Ma'lumki, Sharqda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularni milliy qadriyatlar, urf-odatlar ruhida tarbiyalash qadimdan muhim masala hisoblanib kelgan. Islom dinining muqaddas kitoblari bo'lmish Qur'oni karim va Hadisi shariflarda ham yoshlar tarbiyasi, odob-axloq, vijdon, iymon va e'tiqod to'g'risida g'oyat qimmatli fikr-mulohazalar o'rin olgan. Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.: «Sizlar o'zingizga munosib jufti-halolni ixtiyor qilinglar, chunki juftingizning fe'l-atvori, xulqi naslingizda o'z aksini topadi» – deganlar. Payg'ambarimiz s.a.v. kelin tanlashda asosan, uning diyonatligi va taqvosiga e'tibor berishni uqtirganlar.

Buyuk sarkarda Amir Temur ham oila qurish masalalariga davlat yumushlaridek juda jiddiy e'tibor bergan. Sohibqiron, xususan, kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'lik-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushurdim"³⁵.

³⁵ Amir Temur o'g'itlari: To'plam. / Tuzuvchilar: B.Ahmedov, A.Aminov. – T.: «O'zbekiston», 2007. –26-b.

Tarixdan bilamizki, ayollarning jamiyatdagi holatiga munosabat turli davrlarda davlat siyosatiga qarab o'zgarib kelgan. Zero, ayollar har qanday jamiyatda ham oilaning asosini tashkil etgan."Ayollar bir qo'li bilan beshik tebratsa, bir qo'li bilan dunyoni tebratadi", degan naql bejiz aytilmagan. Shu masalaga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, har bir jamiyatning taraqqiyoti, adolatliligi va insonparvarligi ayollarga bo'lgan munosabat bilan o'lchalanadi.

Ammo biz ular haqida ba'zan unutib qo'yamiz. Mazkur unutishimiz tufayli qanchadan-qancha kulfat va musibatlarga duchor bo'lamiz. Zotan, har bir xalq o'zining o'tmishini, tarixi, madaniyati, milliyliigi va diniy urf-odatlarini unutar ekan, kelajagini qanday rejalashtirish, uni qay tarzda tasavvur qilishlikda ham yanglishadi.

Kelajak esa doimo yoshlar bilan belgilanadi. Qaysiki xalq o'zining yoshlariga, ularning ta'lim-tarbiyasiga, axloq-odobiga, din-diyonatiga, milliyliigi va madaniyatiga bee'tibor bo'lsa, albatta, zavolga yuz tutadi. Buni hozirgi kunda g'arb xalqlari misolida ko'rishimiz mumkin. Ming afsuslar bo'lsinki, bizdagi holat ham tahsinga sazovor emas, bu borada oiladagi asosiy tarbiya va axloq-odobni ushlab turuvchi onalarning ayblari juda ham salmoqliidir. Qaysiki jamiyatda yoshlarning tarbiyasi va ularning madaniyati buzilib borayotgan bo'lsa, demak, o'sha jamiyatda buyuk tarbiyachilar bo'lmish onalarning xizmatlari kundan-kunga unutilayotgan bo'ladi.

Rivoyat qilinishicha, bir kishi hakimlardan birining huzuriga kelib: "Hazrat, mening bir o'g'lim va bir qizim bor. Ulardan har ikkisini o'qitishga qurbim yetmaydi, faqatgina bittasini o'qitishga imkonim bor, qaysi birini o'qitay?" deb so'rabdi. Shunda hakim zot: "Qizingni o'qit, chunki u kelajakda farzand tarbiya qiladi. Agar o'g'lingni o'qitsang, bir kishini o'qitgan bo'lasan, ammo qizingni o'qitsang, butun bir jamiyatni o'qitgan bo'lasan", deb javob bergan ekan.

Yana hakim zotlardan biri aytadi: "Ayollarning jamiyat oldidagi eng buyuk xizmati har taraflama barkamol va yetuk farzandlarni taqdim qilmoqligidir".

Demak, qanchadan-qancha ma'lumotlarda farzandlarning tarbiyasi asosan onalarning qo'lida ekanligi keltirilyapdi. Albatta, bu bejiz emas. Chunki onalar aslida ko'p vaqtlarini o'z farzandlari bilan o'tkazadilar. Buning uchun esa ota barcha shart-sharoitni yaratib beradi. Ya'ni onalar o'z farzandlari tarbiyasi bilan to'liq mashg'ul bo'lishlari uchun ularning nafaqasini, yeyish-ichishini, kiyim-kechagini, turar-joyini va boshqa barcha xarajatu ehtiyojlarini otalar ado etadilar. Onalar esa o'z o'rnida butun vujudini, borlig'ini, mehr va shafqatini farzandlarining tarbiyasiga qaratadilar. Mana shu qonun-qoida amalga oshirilgan paytda jamiyatda har xil fisqu fasodlar, jinoyatu qonunbuzarliklar, ma'naviy

tarafdan buzilishlarning oldi olingan. Hozirga kelib esa, g'arbning qo'shtirnoq ichidagi madaniyatiga ko'r-ko'rona taqlid qilarmoq erkaklar ham, ayollar ham o'zlarining asl vazifa va mas'uliyatlari qolib, boshqalarnikiga aralashib ketdi. Natija esa yoshlarning tarbiyasizligi va har taraflama nosog'lom holda o'sib-ulg'ayishi bilan yakun topyapti.

Azaldan mamlakatimizda aziz va mo'tabar ayol zotini ulug'lash, opa-singillarimizning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni va nufuzini oshirishga e'tibor qaratib kelinadi. Oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda kamarbasta bo'lgan xotin-qizlarimizni munosib qadrlash ishi barcha tadbirlarning avvali bo'lib kelgan.

Keyingi yillarda vatanimiz taraqqiyoti, ertangi rejalar haqida so'z ketsa, "Yangi O'zbekiston", "Inson qadri uchun" iborasi baralla tilga olinyapti. Bu bejizga emas, albatta. "Ayolni e'zozlash - ezigulik va adolat mezoni" degan ulug'vor g'oyani joriy etishda yurtimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan ayollarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, iste'dodi va iqtidorini qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni himoya qilish davlat siyosatining asosi sanaladi.

Yangi O'zbekistonning ayollari uchun yangicha yondashuv va dunyoqarash bilan yangi imkoniyatlar, yangi imtiyozlar joriy etildi. Jumladan, xususiy sektorda rasmiy ishlayotgan ayollarga homiladorlik nafaqasi davlat tomonidan kafolatli to'lab beriladi, ehtiyojmand yolg'iz ayollarning farzandlari uchun davlat bog'chalari to'lovi byujdetdan qoplab beriladi, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash dasturi qabul qilinadi. Poytaxtda asosan xotin-qizlarni o'qitish uchun davlat-xususiy sherikchilik asosida to'qimachilik sohasida alohida universitet tashkil etiladi. Joylarda uning texnikumlari ham ochiladi.

Ayollarimiz ulushi past bo'lgan aniq fanlar, texnika va huquqshunoslik yo'nalishidagi OTMlarda xotin-qiz talabalar ulushi hozirgi 24 foizdan 40 foizgacha etkaziladi. Yangi o'quv yilidan boshlab oliygo'h, texnikum va kollejlarda o'qiyotgan qizlarga ta'lim kontraktlarini to'lash uchun, ilk marotaba, 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinadi.

Bu kabi imtiyoz, g'amxo'rlik, xotin-qizlarni e'zozlash va mavqeini oshirish ishlari Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarashga mos va xos, albatta. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan mazkur g'oyalarni tadbiiq etish va amalga oshirishda xalqimiz ayollarning tafakkuri, ilm ziyosiga, ularning shijoatu matonatiga tayanadi. Obro'-e'tiborli, katta hayotiy tajribaga ega "Oqila

ayollar” harakatini tashkil qilishni taklif etib, muhtaram yurtboshimiz: "Bu harakat tom ma`noda “mahallaning vijdoni”ga aylanishi kerak. Chunki, ma`rifatli jamiyatni ma`rifatli onalarsiz qurib bo`lmaydi”, deb aytdilar.

Huquqiy-demokratik jamiyat rivojlanib borishi bilan xotin-qizlarning hamma jabxadagi huquqiy maqomi ham kengayib va mustahkamlanib boraveradi. Lekin bu narsa ayollarga qo`yiladigan talabni erkaklar bilan bir xil darajaga olib chiqish zarurligini anglatmaydi. Chunki, tabiat ularga o`ziga xos nozik tiyrat va siyrat ato qilgan bo`li, ular bajaradigan yumushlar ta`sirida tushadigan jismoniy, aqliy va ruhiy yuklama ularga og`irlik qilmasligi zarur. Qolaversa, bobolarimizni ijodga, kurashga undagan, ularning yuraklariga ilhom va jasorat baxsh etgan narsa ham momolarimizdagi go`zallik va oqilalik edi. Buyuk insonlarni dunyoga keltirgan ona-ayollarning o`zi ham buyuk!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoni tarjimasi. - Tehron: Eron milliy kutubxonasi, 1902. -28 b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. -T.: Me`ros, 1998. -132 b.
3. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. - T.: “Ma`naviyat”, 1998. - 8 b.
4. Авлоний А. Туркий гулистон ёки ахлоқ. -Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. - 97 б.
5. Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. T.: O`zbekiston, 2016 - 424 b.
6. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari (mustaqil hayot bo`sag`asidagi yoshlar): Pedagogika fanlari doktori... dis./ Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. - Toshkent, 1998. 279-bet.
7. Shodmonova Sh.S. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari: Ped.fanlari nomzodi. Dis./Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti. - Toshkent, 2001. 14-bet
8. Сороколетова О.В. Любовь - как главная ценность семьи // Евразийский форум. 2015. №1 (7).
9. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. М.: «Полит. лит-ра», 1992. - С. 297-302.
10. Held, K.Heimwelt, Fremdwelt, die eine Welt // Phänomenologische Forschungen / Hrsg. E.W.Orth. - Freiburg / München 1991. - Bd. 24/25 (Perspektiven und Probleme der Husserlschen Phänomenologie). - S. 316.